

O'ZBEKISTONDA OILANI MUSTAHKAMLASH, RIVOJLANTIRISH VA KUCHAYTIRISHNING MUHIM XUSUSIYATLARI

Zebiniso Amrulloevna Shadmanova,

Buxoro davlat pedagogika instituti, "Ijtimoiy va gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (ma'nnaviyat) 1 - kurs magistranti

E-mail: zebinisoshadmanova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash masalasi, shu bilan birga, ushbu sohada davlat siyosatini muvaffaqiyatli olib borishni yo'lga qo'yuvchi bir qator tizimli yondashuvlar tahlil qilingan. Ushbu maqsad yo'lida qilingan islohotlarni to'liq ro'yobga chiqarish va belgilangan maqsadlarga erishish maqsadlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, oila, institut, mahalla, fuqarolar, milliy qadriyat, urfatodat muammo va kamchiliklar.

ВАЖНЫЕ ОСОБЕННОСТИ УКРЕПЛЕНИЯ, РАЗВИТИЯ И УКРЕПЛЕНИЯ СЕМЬИ В УЗБЕКИСТАНЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется вопрос укрепления института семьи в Республике Узбекистан, а также ряд системных подходов, которые обеспечивают успешную реализацию государственной политики в этой сфере. Намечены задачи по полной реализации реформ, проводимых в этом направлении, и достижению поставленных целей.

Ключевые слова: Узбекистан, семья, институт, соседство, граждане, национальные ценности, традиции, проблемы и недостатки.

IMPORTANT FEATURES OF STRENGTHENING, DEVELOPMENT AND STRENGTHENING THE FAMILY IN UZBEKISTAN

ABSTRACT

This article analyzes the issue of strengthening the family institution in the Republic of Uzbekistan, as well as a number of systematic approaches to successfully implementing state policy in this area. The goals of fully implementing the reforms carried out towards this goal and achieving the set goals are outlined.

Keywords: Uzbekistan, family, institution, neighborhood, citizens, national values, traditions, problems and shortcomings.

KIRISH

Insoniyat tarixining barcha bosqichlarida Alloh taolo o‘zi yuborgan payg‘ambarlari orqali oilaning mustahkam bo‘lishi uchun har qaysi davrga muvofiq nizom va qonunlar joriy qilgan. Alloh taoloning yagona xoliqligining dalili va belgilaridan hamda ne’matlaridan biri oila asosida turmushimizni joriy qilib qo‘yganidir.

Oila – ijtimoiy hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini, tarbiyaning uzlusizligini ta’minlaydigan, kelajak avlod, qadriyatlar tizimiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadigan ijtimoiy makon.

Oila erkak va ayol o‘rtasidagi rasmiy nikohga asoslangan, ota-onva farzandlar o‘rtasidagi munosabatlardan tashkil topgan, jamiyatning axloqiy me’yorlari va qoidalari qo‘llab-quvvatlanadigan, insoniyat madaniyatini kelajak avlodga etkazib beradigan va uni rivojlantiradigan birlamchi ijtimoiy guruhdir.

Oila – asrlar davomida shakllanib kelgan jamiyatning mustahkam poydevori, jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi qudratli maskan. Jamiyatning har tomonlama farovonligi oilaning mustahkamligi, tinchligi va xotirjamligiga bog‘liq. Ma’lumki, mamlakatimizda ayollar huquqi davlatimiz tomonidan qonun asosida to‘la to‘kis himoya qilinadi. Chekka-chekka qishloqlarimizda ham ayollarni sog‘lig‘ini tiklash, shifoxonalarni tashkil qilingani, barcha ijtimoiy siyosiy sohalarda ularning faol qatnashib kelayotgani buning yorqin misolidir. Ayollandan katta va kichik rahbarlar, tadbirkorlar, fan doktorlari va O‘zbekiston qahramonlari mavjudligi dilimizni quvontiradi, albatta. Shu bois Yangi O‘zbekiston hamda Uchinchi Renessans poydevoriga asos solinayotgan bir davrda oila institutini mustahkamlash va uning tinchligi, xotirjamligini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Oila jamiyatning asosiy instituti hisoblanadi. Shu bois u doimo davlat hamda jamiyat muhofazasida bo‘lgan va shunday bo‘lib qoladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1993 yil 20 sentabrdagi Xalqaro oila yili to‘g‘risidagi rezolyusiyasi (A/RES/47/237)¹ ga muvofiq 15 may kuni, jahon miqyosida Xalqaro oilalar kuni (International Day of Families) sifatida nishonlanadi. Xalqaro oilalar kunini o‘tkazishdan maqsad jahon hamjamiyati diqqatini oilaviy qadriyatlarga va oila instituti bilan bog‘liq muammolarga qaratishdir. Bayram munosabati bilan har yili BMT bosh kotibining murojaati e’lon qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi huzurida “Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etilib, uning zimmasiga oilalarga

¹ Резолюция, принятая Генеральной Ассамблеей [без передачи в главные комитеты (A/47/1011)] / A/ RES/47/23. 8 October 1993 // <https://www.un.org> (Мурожаат қилинган сана: 2022 йил 10 апрель)

ta'sirchan metodik, konsultativ va amaliy yordam ko'rsatishning samarali tizimini yaratish kabi muhim vazifalar yuklangan. Ayniqsa, keyingi yillarda bu borada olamshumul ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida belgilab berilgan 7 ta yo'nalishning beshinchi "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish" yo'nalishi bo'yicha 71-78 - maqsadlarning mohiyati ham oilaning ma'naviy poydevorini mustahkamlashga qaratilgan².

Xotin-qizlar va oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mahalla va oila institutlarini har tomonlama mustahkamlash bo'yicha davlat siyosatini samarali amalga oshirishning "mahallabay", "xonadonbay" vertikal tizimi yaratildi.

Oiladagi ma'naviy muhit, shaxslararo munosabatlar bolaning tarbiyasida juda katta rol o'ynaydi. Ma'rifatparvar, mutafakkir muallim, Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yoxud axloq" kitobida³: "Alloh taolo insonlarni asl xilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi bilan yomonni, foyda bilan zararni, oq bilan qorani ajratadigan qilib yaratgan. Lekin insondagi bu qobiliyatni kamolga etkazish tarbiya bilan bo'lur. Qush uyasida ko'rganini qilar", – deydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: "Ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qanchalik ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib qilsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab etadi"⁴, – deb ta'kidlagnalaridek, bugungi kunlarimizda nikoh-oila munosabatlari zaminida yuzaga kelayotgan ko'plab savollarga javobni o'tmish mutafakkirlarimiz ishlarida ko'rishimiz mumkin.

Darhaqiqat, tarixiy, ilmiy-nazariy va hayotiy nuqtai nazardan qaraganda oilaning ma'naviy poydevori-oilaviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar hisoblanadi.

Oilaviy qadriyatlar moddiy va axloqiy-ma'naviy qadriyatlardan iboratdir. Oilaning moddiy qadriyatları oilani iqtisodiy jihatdan ehtiyojlarini ta'minlashga xizmat qiladigan, avlod-ajdodlar tomonidan shakllantirib kelinadigan moddiy resurslardan iboratdir.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг "2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги 2022 йил 28 январдаги ПФ-60- сон Фармони.

³ Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Т.: Yoshlar. 2018. – 96 b.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. // Xalq so'zi. 2020-yil 25-yanvar, – № 19. 3-sahifa.

Oilaning, jamiyatning moddiy barqarorligi, oila a'zolarining baxtlilik indeksini namoyon etadigan indikatorlardan muhimi oila ma'naviyati bo'lib, uning asl maqsadi – oila a'zolarining umuminsoniy va milliy qadriyatlargacha, axloq-odob qoidalariga kundalik hayotida amal qilgan holda hayotdan rozi bo'lib yashash demak.

Oilaviy qadriyatlar – oila a'zolari tomonidan qadrlanadigan, sulolalar g'ururiga aylangan, avloddanavlodga ma'naviy boylik sifatida o'tib, boyib, takomillashib jamiyatda oila imijini namoyon etadigan dunyoviy va diniy an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, axloq-odob qoidalaridan iborat.

Shuningdek, oila a'zolari imijini belgilovchi axloq-odob qoidalari ham hisoblanadi.

Oilaviy qadriyatlarning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ularga rioya etish oilaning, oila a'zolarining jamiyatda tutgan o'rnni belgilaydi. Oilaviy qadriyatlar milliy-umuminsoniy-milliy tizim asosida o'zini-o'zi namoyon etadi va takomillashib boradi.

Tadqiqot materiallari va metodologiya:

Tadqiqotlarga ko'ra, oilaviy qadriyatlar qo'yidagi tarbiyaviy komponentlarni o'z ichiga oladi:

Oila ma'naviyatining asosiy mazmuni: milliy va sulolaviy qadriyatlardan asosida er-xotin, ota-onalar, farzandlar, qaynona-kelin o'rtasida o'zaro ma'naviy-axloqiy munosabatlarga ko'ra, kundalik hayot tartib-qoidalariga rioya etish, oila an'analariga muhabbat, sadoqat; bir biriga nisbatan qadr-qimmatlilik, kamtarlik, sabr-toqatlilik; har qanday vaziyatda o'zini ma'naviyatini namoyon eta bilish; muloqot madaniyati, ongli intizom, milliy odob doirasida so'zlash, sermulohazalilik; sarajom-sarishtalilik, orastalilik; turli noaxloqiy illatlardan xolis bo'lish; e'tiqodlilik, milliy iftixor tuyg'usiga ega bo'lish, yurish-turish, xatti-harakat qoidalariga, sog'lom turmush tarzi (kiyinish, ovqatlanish, shaxsiy gigiena, jismoniy salomatlikni saqlash) qoidalariga amal qilish; ro'zg'orshunoslik madaniyatiga amal qilish, kattalarga hurmatda va kichiklarga nisbatan izzatda bo'lish; adabiyot va san'atga muhabbatni namoyon etish; turli millat urf-odatlari, an'analar, tili, dini va madaniyatiga hurmat, bag'rikenglik; mehnat madaniyati va boshqalardan iborat.

XIX asrning o'rtalarida bizning o'lkamizda yashab, ijod etgan, xalqimiz milliy xususiyatlarini tadqiq etgan German Vamberi o'z ishlarida, Sharqda, ayniqsa, O'rta Osiyoda dinning ahamiyati haqida yozar ekan: "Bu erda din odamning yaratganga munosabatini aniqlash vazifasi bilangina cheklanmaydi, u bu erda qandaydir ko'proq narsa bo'lib, xalq jamoatchiligining barcha jabhalariga kirib boradi, u siyosatga ham, ijtimoiy munosabatlarga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi, o'z izini (muhrini) tafakkur

qatlamlarida qoldiradi va mahalliy aholining butun ruhiyatida aks etadi”⁵, – deb yozadi.

Bizning nazarimizda, oilaviy qadriyatlarning maqsadi yuqoridagi komponentlarni oilaning har bir a’zosi o‘z xatti-harakati, xulq-atvori, yurish-turishi, kiyinishi orqali kundalik faoliyatida ongli ravishda namoyon etishdir.

Darhaqiqat har qaysi millatning o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o‘rni va ta’siri beqiyosdir. Chunki, insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag‘rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiatini va dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezhulik, oliyjanoblik va mehr-oqibat, ornomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir.

Shuning uchun ham yoshlarimizdagagi aynan oila muhitida paydo bo‘ladigan ota-onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash har qaysi insonga xos bo‘lgan odamiylik fazilatlari va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma’naviy olamini tashkil etadi.

O‘zbekiston bu – yoshlar mamlakati hisoblanadi, aholimizning teng yarmidan ko‘pini yoshlar tashkil qilishi, bu yurtimizda hurmatli Prezidentimiz tomonlaridan olib borilayotgan yoshlar siyosati - davlat siyosatining asosiy tarkibiy qismi ekanligini yana bir bor ko‘rsatib turibdi.

Oila hayoti hech qachon sidirg‘asiga faqat shodu xurramlik, baxt-saodatdan iborat bo‘lmaydi.

Turmushda ixtilof va tashvishlar, qiyinchilik va etishmovchiliklar, musibat va g‘am-anduhlar keragicha uchraydi. Er-xotin birgalashib, qarshi kurashsagina ularni engish oson kechadi, oila xotirjamligi tezroq qo‘lga kiradi⁶.

Darhaqiqat, biz jamoada, ko‘pchilik orasida, mahallada, hasharchilikda yashaymiz. Ma’naviyatimizning bu jihatlarini bilmagan yoki bilishni istamagan ayrim kuchlar bizga o‘z g‘oyalarini singdirmoqchi bo‘ladilar. Islom Karimov: “Ming afsuski, mana shunday tarixiy haqiqatni anglamaydigan yoki anglashni istamaydigan chet eldag‘i ba’zi siyosatchi va arboblar nafaqat siyosat yoki iqtisodiyot, balki ma’naviyat bobida ham bizga aql o‘rgatishga, azaliy hayat tarzimiz, ruhiy dunyomizga yot bo‘lgan qarashlarni majburan joriy etishga urinmoqda”, degan⁷.

⁵ Гулямов Л. Невероятное путешествие Арминиуса Вамбери // Uzbekistan Airways. Журнал НАК Ўзбекистон ҳаво йўллари. – № 2. 2013. – Б. 52-56.

⁶ Alimov Usmonxon. Oilada farzand tarbiyasi: U.Alimov; mas’ul muharrir A.Mansur. – Toshkent: Movarounnahr. 2012. – B. 140.

⁷ Burhoniddin Marg‘inoniy. Hidoya. 1-jild. – Toshkent: Adolat, 2000. – B. 11.

Ma'lumki, so'nggi yillarda Respublikamizda mediatorlik harakati yo'lga qo'yilmoqda. Bunga ko'ra, ro'y berishi ehtimol bo'lgan nizoli vaziyatlar, tortishuvlar, tomonlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar, o'zaro kelishuv asosida, mediatorlik aralashuvi bilan sudgacha olib bormasdan bartaraf etilishi nazarda tutiladi.

Oila muammosini tadqiq etish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi alohida e'tibor talab etadi. Aksariyat hollarda turmush qurgan yoshlarda oilaning nozik jihatlari haqida etarli tasavvur, bilim va ko'nikmaning yo'qligi yosh oiladagi munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ekspertlarning ta'kidlashicha, bu borada ijobiy natijaga erishish yo'lida ota-onva qarindoshlarning yoshlarga tarbiyaviy ta'siri muhim hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari va muhokama:

Bugungi kunda zamonaviy jamiyatning muammolaridan biri – bu oila institutida vujudga kelayotgan ko'plab salbiy holatlardir. Oilaviy munosabatlarda milliy qadriyat va urf-odatlarimiz o'rniiga "G'arb madaniyati"ning salbiy jihatlari shaxs ongiga singib borayotganligi ko'plab muammolarga sabab bo'lmoqda.

Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiatini dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezzulik, olivjanoblik va mehr-oqibat, ornomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir⁸.

Shuning uchun ham yoshlarimizdagagi aynan oila muhitida paydo bo'ladigan ota-onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash har qaysi insonga xos bo'lgan odamiylik fazilatlari va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma'naviy olamini tashkil etadi.

Zero, oila farovonligi – milliy farovonlik asosidir. Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng qimmatli an'analar: halollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharmu-hayo, mehru-oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo, oilada shakllangan.

Bugungi kunda ham ana shu an'analarni davom ettirib, o'zbek oilalari oilaning sog'lom iqlimi, ota-onaning bir-biriga mehri va hurmati sharoitida, oila bag'rida farzandlarini el-yurtining munosib o'g'il-qizlari, Vatanining haqiqiy sodiq fuqarosi bo'lib voyaga etishlarida jon kuydirmoqdalar. Shuning uchun ham o'zbek xalqida

⁸ Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини тубдан ислоҳ қилиш ва янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисидаги ПФ-6017-сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 30.06.2020 // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. 30.11.2021 й., 06/21/26/1111 -сон.

“qush o‘z uyasida ko‘rganini qiladi” deb, bejizga aytilmagan, bunda chuqur ma’nomazmun bor.

Oila jamiyatning asosiy negizi. Sog‘lom oila muhitini yaratish, ona va bola salomatligini muhofaza qilish, sog‘lom avlodni shakllantirish esa sog‘lom kelajak demakdir. Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta’minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo‘lib etishishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘i ekanini tan olishimiz darkor.

Oila haqida so‘z yuritar ekanmiz, avvalo, ko‘z o‘ngimizda Ona siymosi shakllanadi. Nima deganda oila muqaddasligini ta’minlovchi birinchi omil – Ona, ahli ayolning pokizaligi, oqilaligi, mehru muruvvati, sadoqati va vafodorligidir.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, mustaqillik yillarida hukumatimiz tomonidan oilaga ahamiyat qaratilib, “Oila”, “Ona va bola”, “Sog‘lom avlod”, “Ayollar”, “Yoshlar” va “Barkamol avlod” yillari e’lon qilindi. Bularning mohiyatini va ahamiyatini inobatga olgan holda, oilaga e’tiborimizni tubdan o‘zgartirish, oilalarni avvalo ijtimoiy jihatdan himoyalash, e’zozlash, qo’llab-quvvatlash – bugungi kunimiz uchun va ertangi istiqbolimiz uchun naqadar muhim va dolzarb ekanligini yaxshi tushunishimiz va anglashimiz darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини тубдан ислоҳ қилиш ва янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисидаги ПФ-6017-сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 30.06.2020 // Конунчилик маълумотлари миллий базаси. 30.11.2021 й., 06/21/26/1111 -сон.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон Фармони.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. // Халқ сўзи. 2020-йил 25-январ, – № 19. 3-саҳифа.
4. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. – T.: Yoshlar. 2018. – 96 b.
5. Алимов Усмонхон. Оилада фарзанд тарбияси: У.Алимов; масъул муҳаррир А.Мансур. – Тошкент: Мовароуннаҳр. 2012. – Б. 140.
6. Бурхониддин Марғиноний. Ҳидоя. 1-жилд. – Тошкент: Адолат, 2000. – Б. 11.

7. Гулямов Л. Невероятное путешествие Арминиуса Вамбери // Узбекистан Аирвайс. Журнал НАК Ўзбекистон ҳаво йўллари. – № 2. 2013. – Б. 52-56.
8. Резолюция, принятая Генеральной Ассамблеей [без передачи в главные комитеты (A/47/1011)] /A/ PEC/47/23. 8 Октябрь 1993 // [хттп://www.un.org](http://www.un.org) (Мурожаат қилинган сана: 2022 йил 10 апрель).